

---

## ENGIL AVTOMOBILDA YO'LOVCHI TASHISH LITSENZIYA VARAQASINI OLISHNING TARTIBIDAN XABARDORMISIZ?



Bunda haydovchi avvalo Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali masofadan yoki Davlat soliq inspeksiyasi hududiy bo'limiga borgan holda o'zini o'zi band bo'lgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tishi lozim. Ro'yxatdan o'tish va guvohnoma olish bepul.

So'ngra haydovchi yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali yoki Davlat xizmatlari markazlariga tashrif buyurgan holda, yengil avtomobilda yo'lovchi tashish litsenziya varaqasini olish uchun 1 yilga 300 ming so'm davlat boji to'lab, litsenziya varaqasi oladi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali murojaat qilinganda 10 foiz chegirma qo'llaniladi, ya'ni 270 000 so'm to'lashning o'zi yetarli.

O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan haydovchi rasmiy ish stajiga ega bo'lishni istasa, ixtiyoriy ravishda 1 yil uchun 300 ming so'm ijtimoiy soliq to'lashi mumkin. Takrorlab o'tamiz, ijtimoiy soliq to'lash o'zini o'zi band qilganlar uchun ixtiyoriy sanaladi.

**Abdumanof Umridinov - So'x tumani adliya bo'limi**

**Davlat xizmatlari markazi sho'ba mudiri**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-11-03 18:12:10